

FILIALNING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. Filial belgilangan tartibda iste'molchilarni tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta'minlash, hamda gaz ta'minoti obyektlarini ekspluatatsiya qilish maqsadida tashkil etilgan.

2. Filialning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy va suyultirilgan gaz sotish bo'yicha belgilangan hajmlar doirasida shartnomalar tuzish, hamda tuzilgan shartnomalarga muvofiq iste'molchilarni tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta'minlash.
2. Gaz tarmoqlaridan, gaz to'ldirish shahobchalari (stansiyalari) hamda servis markazlaridan xavfsiz foydalanish qoidalari va normativ talablariga rioya qilish, gaz ta'minoti obyektlarini avariyasiz ekspluatatsiya qilish sharoitlarini yaratish.
3. Amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq barcha gaz ta'minoti tizimlarining ishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash.
4. Gaz taqsimlash tarmoqlari, gaz to'ldirish punktlari (stansiyalari), servis markazlari hamda ulardagi inshoot va uskunalarning texnik-loyiha ko'rsatkichlarini ta'minlash.
5. Qabul qilinayotgan va sotilayotgan tabiiy va suyultirilgan gaz hajmlarining qat'iy hisobini yuritish.
6. Gaz taqsimlash tarmoqlari, gaz to'ldirish punktlari (stansiyalari) inshoot va uskunalaridan gaz sizib chiqish holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
7. Gaz ta'minoti obyektlarida gazdan oqilona foydalanilishini ta'minlash, gaz yo'qotishlari holatini tahlil qilish va ularni qisqartirish choralarini ko'rish.
8. Iste'molchilarga gaz jihozlaridan foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish.
9. Tabiiy va suyultirilgan gazdan foydalanish uchun iste'molchilarga belgilangan tartibda ruxsatnomalar (texnik shartlar) berish va hisobini yuritish.
10. Iste'molchilar bilan, jumladan ommaviy axborot vositalari orqali tabiiy va suyultirilgan gazdan oqilona va xavfsiz foydalanish, hamda tabiiy va suyultirilgan gaz uchun hisob-kitob qilish tartibi bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.
11. Yetkazib berilgan suyultirilgan gaz uchun, shuningdek suyultirilgan gaz iste'mol qiluvchi aholi va ulgurji iste'molchilarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'larning to'liq kelib tushishini ta'minlash.
12. Yetkazib berilgan tabiiy va suyultirilgan gaz va har bir iste'molchiga gaz ta'minoti xizmatlari, hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarning analitik hisobini yuritilishini ta'minlash.
13. Yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash, iste'molchilarning qarzdorligini kamaytirish, shuningdek tabiiy gaz iste'mol qiluvchi aholi va ulgurji iste'molchilarga

- ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'larning to'liq kelib tushishini ta'minlash.
14. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi bilan o'rnatilgan tartibda hamkorlikda faoliyat olib borish.
 15. Turar-joylar va kommunal-maishiy obyektlarning gaz xo'jaligi tizimida sanoat xavfsizligini ta'minlash sohasida korxonalar xizmatlari tomonidan me'yoriy-huquqiy va texnik hujjatlarning bajarilishini nazorat qilish.
 16. Xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanishda avariya va ishlab chiqarishda jarohatlanishlarning oldini olish bo'yicha choralar-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
 17. Gaz quvurlari, gaz to'ldirish punktlari (stansiyalari) va ulardagi inshootlardan foydalanishda ularning texnik holatlarini muntazam nazorat qilish, aniqlangan nuqsonlarning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish (asboblarning yordamida tekshirish, bosim ostida sinash va h.k.), ma'lumotlarni tegishli jurnal va texnik hujjatlarda qayd etish.
 18. Yer osti gaz quvurlarining texnik holatini o'rganish, hamda ularni foydalanishga yaroqsiz qismlarini joriy va kapital ta'mirlash, ularning quvvatini oshirish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish va Jamiyatga taqdim etish.
 19. Yuqori, o'rta va past bosimli yer osti va yer usti metall va polietilen gaz quvurlarida montaj, demontaj va ta'mirlash ishlarini olib borish.
 20. Yuqori, o'rta va past bosimli yer osti va yer usti quvurlarini mukammal va joriy ta'mirlash.
 21. Gaz xo'jaligida qurilish-montaj, ta'mirlash, ishga tushirish va sozlash ishlarini amalga oshirish.
 22. Gazlashtirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.
 23. Gaz iste'mol qiluvchi uskunalarni o'rnatish va boshqa xizmatlar ko'rsatish.
 24. Amaldagi qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa foyda olishga qaratilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish.
 25. Faoliyatning maxsus litsenziya (ruxsatnoma) talab etiladigan turlari bo'yicha filial tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli litsenziya (ruxsatnoma) olinganidan keyin amalga oshiriladi.